NOT: 22110012079508

# XIZMATLAR KO'RSATISHGA (ISHLARNI BAJARISHGA) OID SHARTNOMA 1-son

**17-may 2022-yil** **Kattaqo'rg'on tumani**

**«Axmadjon Tex Xizmat» XK** keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari G.Obidova nomidan, bir tomondan va Kattaqo'rg'on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi M.Rasulov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) (keyingi o'rinlarda-"Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

| № | Mazmuni | O'lchov birligi | Soni | Miqdori | Umumiy so'mmasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kattaqo'rg'on tumanidagi olis qishloqlarga internet tarmog'ini tortishga transhey qazib, qayta ko'mish uchun ekskavator xizmati | metr | 7636 | 5500 | 41 998 000 |
| | **Jami** | | | | **41 998 000** |

1.2. Shartnomaning umumiy so'mmasi 41 998 000 (Qirq bir million to'qqiz yuz to'qson sakkiz ming ) so'm deb belgilandi.

1.3. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomada keltiriladi.

## II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. **"Buyurtmachi" ning huquqlari :**

2.1.1 "Bajaruvchi" dan shartnomani bajarish uchun zaro'r bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi" dan "Xizmatlar" "Buyurtmachining" xisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchidan" mazkur shartnomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. Zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

-zaro'r sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;

-"Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

-bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zaro'r darajada bajarilmaganligi natijasida

Кўриб чиққан юрист: MAMARAJABOV SIROJIDDIN SHUHRAT O'G'LI. Ҳужжат рақами: LT7871848471

yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. **"Buyurtmachi" ning majburiyatlari:**

2.2.1. «Xizmatlar» byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

2.3. **«Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega :**

2.3.1. Ko'rsatilgan «Xizmatlar»uchun 30% haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini «Buyurtmachi» dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan «Xizmatlar» ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini «Buyurtmachi» dan talab qilish.

2.4. **«Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:**

2.4.1. «Buyurtmachi»bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng «Xizmatlar»ni ko'rsatish:

2.4.2. «Buyurtmachi» ga «Xizmatlar» ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomaning 4,8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar «Xizmatlar»ni ko'rsatish jarayonida «Bajaruvchi» shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, «Buyurtmachi» ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun muddatda tekin tuzatib berish.

2.4.4. Kattaqo'rg'on tuman markaziga O'zbekiston milliy bayrog'ini tayyorlash va o'rnatishni o'z zimmasiga oladi.

## III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1 Mazkur shartnomaning bahosi 41 998 000 so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan «Xizmatlarning»bahosi mazkur shartnomada ko'rsatilgan.

3.2. «Buyurtmachi» ko'rsatiladigan «Xizmatlar» turkumi so'mmasining 30 foizi miqdorida 2022 yilning may oyida oldindan haq to'laydi va ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin «Xizmatlar» turkumi so'mmasining 70-foizi miqdorida 2022 yilning 31-dekabrgacha yakuniy to'lovni amalga oshiradi.

3.3. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

## IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Mazkur shartnoma qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. «Xizmatlar» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. «Buyurtmachi» muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda «Xizmatlar» ko'rsatilishi ushbu

assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko‘rsatilmagan «Xizmatlar» o‘rnini to‘ldirish sifatida qaralmaydi va ko‘rsatilmagan «Xizmatlarning» o‘rni to‘ldirilishi kerak, bunday «Xizmatlar» «Buyurtmachi» ning oldindan berilgan yozma roziligi bo‘yicha ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» bevosita «Buyurtmachining» ma’sul xodimi tomonidan dalolatnoma bo‘yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko‘rsatilgan «Xizmatlar» miqdori, ularning sifati ko‘rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan «Xizmatlar» ko‘rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Buyurtmachi»ning buyurtmanomasi ko‘rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko‘rsatilgan davr moboynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda «Bajaruvchi» Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftarini yuritadi.

4.8. «Buyurtmachi» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Xizmatlar»ning tegishli qismlarini ko‘rsatish sanasini o‘zgartirishga haqlidir, bu haqda «Bajaruvchi»ni buyurtmanomada ko‘rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko‘rsatilayotgan «Xizmatlar» sifati, miqdori «Bajaruvchi» tomonidan noto‘g‘ri aniqlanishi, ularning qiymati noto‘g‘ri belgilanishi va *2022 yil “17” maydagi 1-sonli shartnomaning 1.1 bandidagi ko‘rsatilgan narxlar* noto‘g‘ri ko‘rsatilgan hollari aniqlangan taqdirda «Bajaruvchi» ko‘rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu so‘mmadan tashqari buyurtmachiga noto‘g‘ri hisob-kitob qilingan so‘mmaning 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

5.2. Agar ko‘rsatilgan «Xizmatlar»ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, na‘munalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko‘rsatilgan, sifatli darajada bo‘lmagan «Xizmatlar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

«Xizmatlar» ko‘rsatish bo‘yicha shartnomada nazarda tutilgan majbo‘riyatlar
5.3. «Xizmatlar» ko‘rsatish bo‘yicha «Buyurtmachi»ga belgilangan ustamalardan
bajarilishi rad etilganligi uchun «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga belgilangan ustamalardan
tashkari ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan «Xizmatlar»ning 25 foizi miqdorida jarima
to‘laydi.Jarimadan tashkari, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga «Xizmatlar» ko‘rsatilmasligi
natijasida etkazilgan zararni to‘laydi.

5.4. Xizmatlar ko‘rsatish kechiktirilgan yoki to‘lik ko‘rsatilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy so‘mmasi ko‘rsatilmagan «Xizmatlar» qiymatining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak. Penya to‘lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zaro‘r tarzda bajarishdan va «Xizmatlar» ko‘rsatish muddati kechiktirilishi yoki to‘lik ko‘rsatilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko‘rsatilgan «Xizmatlar» uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov so‘mmasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisob raqamidan penya to’laydi, biroq bu kechiktirilgan to’lov so’mmasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5.6. «Buyurtmachi» tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zaro‘r darajada bajarilmaganligi uchun «Buyurtmachi»ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning hatti -harakatlari (harakatsizligi) «Buyurtmachi» tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zaro‘r tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan

«Bajaruvchi»ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. «Bajaruvchi»ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining «Buyurtmachi» tomonidan bajarilmasligi (zaro'r tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda «Bajaruvchi» tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqorolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar mahsulotlar narxi yukori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq tovar etkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda tuxtatiladi.

7.2. SHartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekistan Respublikasi Fuqorolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

7.3 Ushbu shartnoma 2022-yil 17-maydan 2022-yil «31» dekabrgacha amal qiladi, shartnoma 2 nusxada tuzildi. Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy ko'chga kiradi.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1Tomonlar:

8.1.1-Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklamay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari harakatsizlilarini sodir etmaydilar.

8.1.2-Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul so'mmalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'barlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

8.1.3 Tomonda ushbu Shartnomaning 8.1.1.-bandagi talablarni buzish sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarning normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. YAKUNIY QOIDALAR

9.1Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda bo'zgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2 Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zaro'r darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xaqiqiy hisoblanadi.

9.3.Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning barcha nusxalari teng yo'ridik ko'chga egadir.

9.4.Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

## X.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| «Ijrochi» | «Buyurtmachi» |
|---|---|
| **"AXMADJON TEX XIZMAT" XK**<br>(mol etkazib beruvchining nomi) | **Kattaqo'rg'on tumani Obodonlashtirish boshqarmasi**<br>(byudjetdan mablag' oluvchining nomi) |
| Manzil: Kattako'rg'on tuman<br>Tel./faks +90 250 20 14<br>x/r 20208000605202063001<br>Bank nomi: Xalq banki Payshanba filiali<br>MFO 00737 STIR 307271781 | Manzil: Kadan ko'rg'onchasi<br>Tel. /faks 66-414-31-94<br>sh.x.r: 100022860182105706520011002б<br>INN: 200747472<br>Markaziy bank Toshkent shahar XKKM<br>MFO: 0014<br>STIR: 201122919 |
| Raxbar _______ G.Obidova<br>(lavozim) (imzo) (F.ISH)<br>M.U. | Rahbar _______ M.Rasulov<br>(lavozim) (imzo) (F.ISH)<br>M.U. |

..GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: LT787184847I

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO`RG`ON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO`RSATISH MARKAZI

141408, Kattaqo`rg`on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA
## № YF02384630

**1. Loyihaning turi.**

Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi.**

Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va «Axmadjon Tex Xizmat» X/K o'rtasida "Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarni bajarishga) oid" 1-sonli shartnoma.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy xulosa berish uchun 2022-yil 17-may kuni kiritilgan.

Shuningdek, Shartnoma ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga javob beradi. Shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan javobgarlik masalasi tomonlar o'rtasida qonuniy kelishilgan. Shartnoma yuzasidan shartnoma ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni hal qilish tartibi belgilangan.

Loyihada ko'rsatilgan shartnoma shartlari, taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga mos keladi va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz boshlig'i** **S.Mamarajabov**

2022-yil 17-may

3107477

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AHMADJON TEX XIZMAT" Xususiy korxona

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"AHMADJON TEX XIZMAT" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

03.04.2020 833233 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307271781

Tashkiliy-huquqiy shakli: Xususiy korxona

Joylashgan joyi: Samarqand viloyati, Kattaqo`rg`on tumani, Kattaqo'rg'on tuman M.Ulug'bek MFY H.Olimjon ko'chasi.

Guvohnoma: Samarqand viloyati, Kattaqo`rg`on tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 79508 на приобретение Каттақўрғон туманидаги олис қишлоқларга интернет тармоғи тортишга траншей қазиб, қайта кўмиш учун экскаватор хизмати бўйича

Способ проведения электронный

Дата 13.05.2022

Время рассмотрения 11.05.2022 10:26

Конкурсная комиссия Каттакургон туман Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | RAXMONOV LUTFULLO MAMATKULOVICH | Хоким ўринбосари | Каттакургон туман хокимлиги |
| **Секретарь комиссии** | SHAROPOV YUSUBJON RAVSHANOVICH | Бўлим бошлиғи | Каттақўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | RASULOV MASARIDDIN G'OFUR O'G'LI | Туман хокимли бош мутахасисси | Каттакургон туман хокимлиги |
| **Член комиссии** | NURMOMATOV NAG'MATILLO MIYASSAROVICH | Техник назоратчи | Каттақўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | DJAMOLOV AKMAL KAMOLOVICH | Бош муҳандис | Каттақўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | PARDAYEV JAVIT RUZIBOYEVICH | Бўлим бошлиғи | Каттақўрғон туман Ободонлаштириш бошқармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 13.05.2022 года № лота 79508.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по прокладке волоконно-оптического кабеля связи** |
|---|---|
| Подробное описание | Каттақўрғон туманидаги олис қишлоқларга интернет тармоғи тортишга траншей қазиб, қайта кўмиш учун экскаватор хизмати бўйича |
| Количество товара | 7 636.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 5 500.00 |
| Стартовая сумма | 41 998 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги

Тип: Текстовое значение

Описание: ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 20 | Мавжуд ва тақдим этилди | 19 | Экспертная | | |
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 20 | 5500 | 15 | Экспертная | | |

Критерий №2 шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 20 | Мавжуд ва тақдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 20 | 5500 | 16 | Экспертная | | |

Критерий №3 Требуется строгое облюдение норм, правил и требований пожарной безопасности, техники безопасности и охраны труда при техники

Тип: Текстовое значение

Описание: Требуется строгое облюдение норм, правил и требований пожарной безопасности, техники безопасности и охраны труда при техники

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 20 | Мавжуд ва тақдим этилди | 18 | Экспертная | | |
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 20 | 5500 | 18 | Экспертная | | |

Критерий №4 шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик

Тип: Текстовое значение

Описание: шартнома тузиш учун қонуний ҳуқуққа эгалик

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 20 | Мавжуд ва тақдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 20 | 5500 | 16 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 41 998 000.00 | 41 998 000.00 | 10.05.2022 15:51:25 | 20.00 |
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 41 998 000.00 | 41 998 000.00 | 10.05.2022 14:08:54 | 20.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **PARVOZLI-KELAJAK MCHJ** | 64.8 | 20 | 84.8 |
| **AHMADJON TEX XIZMAT XK** | 76.8 | 20 | 96.8 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 79508 от 13.05.2022 года на приобретение Каттақўрғон туманидаги олис қишлоқларга интернет тармоғи тортишга траншей қазиб, қайта кўмиш учун экскаватор хизмати бўйича определила победителем:

AHMADJON TEX XIZMAT XK
307271781

и резервный исполнитель: PARVOZLI-KELAJAK MCHJ (305873682)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | PARDAYEV JAVIT RUZIBOYEVICH | Согласен | |
| **Председатель комиссии** | RAXMONOV LUTFULLO MAMATKULOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | RASULOV MASARIDDIN G'OFUR O'G'LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | NURMOMATOV NAG'MATILLO MIYASSAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | DJAMOLOV AKMAL KAMOLOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП